

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

Ro'yxatga olindi.
№ BD-5111100 4-02
2015 yil «__»_____

Vazirlikning 2015 yil «__»
_____dagi «__»-sonli
buyrug'i bilan tasdiqlangan

O'ZBEK XALQ MUSIQA IJODI

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar
Ta'lim sohasi:	140000 - Pedagogika
Bakalavriat yo'nalishi:	5111100 - Musiqa ta'limi

TOSHKENT- 2015

Fanning o'quv dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv-uslubiy birlashmalari faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2015 yil «__» _____dagi «__» - son majlis bayoni bilan ma'qullangan.

Fanning o'quv dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

Q.Panjiev – “Musiqqa ijrochiligi” kafedrasini mudiri.

Taqrizchilar:

M.Tojiboev O'zbekiston davlat konservatoriyasining
professori.

Fanning o'quv dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Ilmiy uslubiy kengashida tavsiya kilingan. (2015 yil «__» _____dagi «__» – sonli bayonnoma)

Kirish

Mazkur dastur - bakalavriat bosqichining “Musika ta’limi” ta’lim yo’nalishlari talabalari uchun mo’ljallangan. Dastur Davlat ta’lim standartlariga binoan umumta’lim maktablari, bolalar musika va san’at va maktabgacha ta’lim muassasalari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun kadrlar tayyorlayotgan bakalavrlar tayyorlash o’quv rejalari asosida tuzilgan.

Fanning maqsadi va vazifalari

Fanning maqsadi – pedagoika sohasida musika ta’limi yo’nalishi bo’yicha ta’lim olayotgan talabalarga o’zbek xalq musika tarixi, madaniyat va ma’naviyat sohalari, e’tiqodlari, shu jumladan badiiy ijodiyot shakllari ko’p jihatdan o’zbek musika merosi bilan yaqindan tanishib olishga imkoniyat beradi. Ayni vaqtda, mazkur fanning asosiy maqsadlaridan yana biri — an’anaviy musika ijodiyotining shakl tuzilish xususiyatlari, tarixiy uslublari kabi masalalari yuzasidan hozirgi zamon musiqiy folkloristika fanida to’plangan ma’lumot va xulosalardan talabalarni xabardor qilishdan iborat.

Fanni o’zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - talabalar turli yo’nalishlarda bilimlarga ega bo’lganliklarini namoyish etishlaridan iboratdir. Mazkur dasturda o’rin olgan mavzular debocha va uchta asosiy qismda jamlangan. — kirish qismida o’quv fanning asosiy maqsad va vazifalari, tarkibiy bo’limlari, o’zbek xalq musiqiy ijodi fanning tarixi hamda o’ziga xos tomonlari haqida umumiy axborot beriladi.

O’zbek xalq musika ijodi fanning o’ziga xos bo’lgan xususiyatlari va uning asoslari, ilmiy uslubiyot masalalari, zamonaviy etnomusiqashunoslikning joriy etilgan asosiy yo’nalish va usullari bayon etiladi. O’quv jarayoni muallim ma’ruzalarini hamda musika namunalarini tinglash, muayyan mavzular bo’yicha muloqot seminar darslariga tayyorgarlik ko’rish, shuningdek musika namuna va shakllarini mustaqil tarzda o’zlashtirish kabi ko’rinishlarda o’tadi. O’zbek xalq musika ijodi fani bo’yicha mashg’ulotlar yakuniy reyting nazorati o’tkazish bilan tugatiladi.

Fan bo’yicha talabalarning bilimiga, ko’nikma va malakasiga qo’yiladigan talablar

Mazkur fanni o’zlashtirish natijasida talaba Davlat ta’lim standartlarida belgilangan bilim, malaka va ko’nikmaga ega bo’lishi nazarda tutiladi, xususan:

- o'zbek xalqi hayotining turli tarixiy davrlaridagi eng muhim musiqiy-tarixiy jarayonlarni;
- rang-barang cholg'ularini, boy ijrochilik an'alarini;
- og'zaki kasbiy mumtoz musiqasi hamda hozirgi zamon O'zbekiston kompozitorlik ijodiyotini;
- o'zbek an'anaviy ashula va cholg'u janrlari, maqom turlarini, nota yozuvlarini;
- an'anaviy musiqani o'rganish uslubiyatini, janrlari va uslubiy tizimini;
- an'anaviy musiqani o'rganishga oid zamonaviy uslublarini ***bilishi kerak***;
- og'zaki kasbiy mumtoz musiqa va kompozitorlik ijodiyoti asarlarini tahlil etish asosiy uslublarini egallash ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak***;
- milliy musiqa an'alarining mushtarak va o'ziga xos jihatlarini aniqlash;
- akustik, ritmik, ohang, lad, tuzilish, bezak va ijroviy tahlil qilish ***malakalariga ega bo'lishi kerak***.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

O'zbek xalq musiqa ijodi fani "Musiqqa tarixi", "Bolalar musiqa adabiyoti", "Etnomusiqashunoslik asoslari" fani boshqa maxsus musiqa fanlari bilan uslubiy jihatdan uzviy bog'liq bo'lib, talabalarning o'zbek xalq musiqa an'alari, an'anaviy musiqa haqidagi umumiy tushuncha va tassavurlarini kengaytirishga xizmat qiladi. O'quv rejada belgilangan semestrlarda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirishdan asosiy maqsad o'quv rejasidagi umukasbiy va ixtisoslik fanlaridan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishni talab etadi.

Fanning san'at tizimidagi o'rni

O'zbek xalq musiqa ijodi fani ixtisoslik fani hisoblanadi. Talabalar o'zbek xalq musiqa va qo'shiqchilik ijodiyoti, an'anaviy musiqa shakllari bilan tarixiy-nazariy va amaliy (seminar) mashg'ulotlar jarayonida bevosita tanishib oladilar. Xalq qo'shiqchiligi an'alari va an'anaviy musiqa ijodining yuzaga kelishi, uning

turli davrlarda yangilanishi, mazkur jarayonga asos bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy hamda ma'naviy omillarning o'zgarib borishi haqidagi xulosalarga ega bo'ladilar. Qo'lga keltirilgan yutuqlarni tahlil qilish fanning ijodiy jarayonlar bilan bog'liqligini belgilaydi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning mazkur fanni o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, sintezatorlar hamda musiqiy kompyuter dasturlaridan foydalaniladi. Ma'ruza, amaliy va seminar darslarda mos ravishdagi ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

II. Asosiy qism

O'quv rejasida mazkur fandan nazariy mashg'ulotlar o'tilishi rejalashtirilmagan.

Amaliy mashg'ulotlarning mavzulari, maqsadi va ularga ajratilgan

An'anaviy musiqaning o'ziga xos tomonlari hamda asosiy qatlamlari

Ko'p asrlik an'anaviy musiqa ijodining serqatlamligi. Uning marosim, urf-odat, turli hodisa va tadbirlar bilan bevosita bog'langan, folklor, xalq ijodi deb nom olgan shakllari. Ustozona musiqa, og'zaki an'anadagi professional musiqa yo'llari — an'anaviy musiqa ijodining tarixiy ko'rinishlari

An'anaviy musiqaning tarixiy rivoji. Ibtidoiy jamiyatga oid ijod shakllari va musika ijodiyoti kelib chiqish muammosi

Ibtidoiy davr odamlarining hayot shart-sharoitlari hamda diniy qarash, e'tiqod va marosimlarining yuzaga kelishi haqida. Turli topinish va e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lgan marosimlarning badiiy-ijroviy xususiyatlari haqida.

Asosiy qism

An'anaviy musiqaning o'ziga xos tomonlari hamda asosiy qatlamlari

An'anaviy musiqa ijodining hayotiyliigi va mazmundorligi, xalq ma'naviy qadriyatlarini saqlash jarayonidagi ahamiyati. Musiqa janrlarining ijtimoiy-tarixiy sharoit, ma'naviy talablar rivoji ta'sirida o'zgarishi. Ko'p asrlik an'anaviy musiqa ijodining serqatlamligi. Uning marosim, urf-odat, turli hodisa va tadbirlar bilan bevosita bog'langan, folklor, xalq ijodi deb nom olgan shakllari. Ustozona musiqa, og'zaki an'anadagi professional musiqa yo'llari — an'anaviy musiqa ijodining tarixiy ko'rinishlari sifatida. Og'zaki an'anadagi musiqa uslublarining barchasida ijod va ijro etish jarayonlarining mushtarakligi. Ularda ustoz-shogird munosbatlari yordamida saqlanayotgan ijodiy qonun-qoidalar. Og'zaki an'anadagi professional musiqa san'atining nazariy asoslarga va ijrochilik maktablariga ega bo'lishi.

An'anaviy musiqaning tarixiy rivoji.

Ibtidoiy jamiyatga oid ijod shakllari va musika ijodiyoti kelib chiqish muammosi

Ibtidoiy davr odamlarining hayot shart-sharoitlari hamda diniy qarash, e'tiqod va marosimlarining yuzaga kelishi haqida. Turli topinish va e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lgan marosimlarning badiiy-ijroviy xususiyatlari haqida. Bularning ovoz va qadimgi cholg'ular vositasida "ommaviy o'yin" va "yakkaxonlik" shakllarida namoyon bo'lishi. Mazkur ijroviy shakllarning musiqiy jihatlari hamda birlamchi janr andozalari (nutqdosh ohanglar, o'yin-raqs usullari, darak beruvchi iboralar va b.)ning qaror topishi to'g'risida. Musiqa cholg'ularining ilk shakl va turlari. Ibtidoiy davr odamlari tomonidan tayyorlangan dastlabki "musiqa qurollari". Qadimgi davr marosimlarda hamda turmush yumushlarida musiqa qurollarining bajargan vazifalar.

Ilk ishlab chikarish iqtisodiyot tizimida ohangdor uslubining shakllanish xususida

CHorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilikka asoslangan iqtisodiyot tizimida ohangdor musiqa uslubining shakllanish xususida. Odamlarning o'troq yashash tarziga o'tishi, dastlabki qishlok-ovul jamoalarining paydo bulishi davrida inson ongida ro'y bergan tub o'zgarishlar to'g'risida. Fasllarning uzviy aylanib turish jarayonini aks ettiruvchi mavsum marosimlar silsilasi va unga oid aytim turlari qaror topishi. Ayni paytda, hayot turkumiga oid oilaviy marosim aytimlar majmuasi yuzaga kelishi. Mazkur marosimlarning ma'naviy yaqinligi. Marosim qo'shiqlarining ohangdorligi, muayan so'z va ohang iboralarga asoslanganligi. Ularda band, band-naqarot shakllari rivoj topishi, o'yin qarakatlarini yoki nutqdosh aytimlarning ritm xususiyatlarini ifodalovchi musiqiy va she'riy vaznlar hamda ritmik uslublarning yuzaga kelishi. Muayyan ritm "qolip"lariga hamda parda tuzilmalariga tayangan ohanglarning yuzaga kelishi, buning natijasida ohangdor musiqa uslubi shakllanishi.

O'zbek musiqiy folxlori

O'zbek musiqiy folxlori xususida. Musiqiy folxlor va uning ko'pqirraligi. O'zbek musiqiy folxlor janrlari tasnifi. Xalq qo'shiqlari va cholg'u kuylari. Marosim va shartlanmagan folxlor janrlari. O'zbek musiqiy merosining mahalliy musiqiy uslublari.

O'zbek marosim musiqasi

O'zbek marosim musiqasi tarixidan. Xalq marosimlari, bayramlari, urf-odatlar, ularning tushunchalari. SHartlanmagan folxlor janrlari. Qo'shiq janrlari va ularning tasnifi. Xalq qo'shiqlari xususiyatlari va ijrochilik an'analari. O'zbek musiqiy cholg'ulari, ularning tasnifi va an'anaviy ansambllar. Tarixiy jarayon. An'anaviy cholg'u musiqasining janr tarkibi – xalq va mumtoz musiqasi, ularning tavsifi. O'zbek musiqiy cholg'ulari va an'anaviy cholg'u musiqasi.

O'zbek mumtoz musiqasi

O'zbek mumtoz musiqasi xususida, tasnifi, tarixiy zamini, xususiyatlari. Professionallik, kasbiylik mezonlari. Ustoz-shogird uslubiy ta'limi. An'ana va uslub. Ijrochilik maktablari. O'zbek mumtoz musiqasining tarixiy taraqqiyoti. Katta ashula va uning ijrochilik an'analari. Uning xususiyatlari, ijro sharti va uslubi. Mazmuni va turlari. Janr tasnifi. Musiqiy qonuniyatlari. Yirik namoyandalari. O'zbek dostonlari, uning ijrochilik san'ati. Janr kelib chiqishi, uning shakllanishi va tarqalishi. Ijrochilik maktablari. Mahalliy xususiyatlari.

Maqomot

Maqomot, uning tarixiy taraqqiyoti. Nota yozuvlari. Ilmiy nashrlar. SHarq xalqlari maqom san'ati. Maqom tushunchasining ta'riflari, uning turli mahalliy variantlari. O'rta asr «O'n ikki maqom» tizimi. Umumnazariy va amaliy asoslari. Manbalar. Xorazm tanbur chizig'i.

Buxoro SHashmaqomi. Uning negizi va shakllanishi. Tarixiy taraqqiyoti. SHashmaqom – o'zbek va tojik xalqlarining yetuk an'anaviy mumtoz musiqasi turkumi sifatida. Uning tuzilishi, tarkibi. Ijrochilik an'analari.

Xorazm maqomlari. Tarixiy taraqqiyoti, shakllanishi. Turkum tarkibi. Nota yozuvlari va to'liq (mukammal) nashrlar. Xorazmda maqom asarlari va turkumlarining mavjudligi. Suvoralar, dutor maqomlari va b.

Farg'ona-Toshkent maqom turkumlari. SHashmaqom va Xorazm maqomlari bilan umumiy va o'ziga xoslik jihatlari. Mahalliy xususiyatlari. Ijrochilik an'analari. Mustaqil asarlar ko'rinishida yetib kelganligi. Ushshoq, Yovvoyi maqom, surnay yo'llari.

Yaqin va O'rta SHarq xalqlari madaniyatida maqom san'ati. Tarixiy taraqqiyoti. Terminologik yaqinligi, umumiyliigi. SHakl xususiyatlari, lad tuzilishi, ijro asoslari. Ozarbayjon mug'omlari, uyg'ur muqomlari. Tuzilishi, tarkibi. Umumiyliigi va o'ziga xosligi. Ijrochilik an'analari. Maqomot va ilmiy tadqiqot taraqqiyoti.

Og'zaki an'anadagi professional musiqa uslublarining qaror topishi

Markaziy Osiyo hududida sinfiy jamiyat va ilk davlatlar topishi davrida yangi ma'rifiy-ma'naviy an'analar, umumdavlat dinlarining rivoj topishi. Qabila, qishloq jamoa marosimlari bilan bir qatorda umumxalq bayram va tantanalarining joriy etilishi. Siyosiy, diniy hamda ijodiy markazlari bo'lgan shaxarlarning ahamiyati, shaxar madaniyatining o'rni. Bu davr falsafa, matematika fanlari katori musiqa ilmining yuzaga kelishi. Bularning professional musiqa san'atining yuksalish jarayoniga ta'siri. Musiqa kasbiga oid afsona va rivoyatlar, ijodiy tartib-qoidalarni bayon etuvchi musiqa risolalarining yaratilishi hamda musiqa nazariyasining rivojlanishi. Professional sozanda-xonanda guruhlarining faoliyati va bastakorlik ijodiyoti. Musiqa ijrochiligining ravnaq topishi, musiqa shakllarining takomillanuvi, turkumli yirik asarlarning yuzaga kelishi.

Etnomusiqashunoslik ilmiy-nazariy fanlar tizimida

Musiqa ilmi ikkita asosiy (tarixiy va nazariy) fanlar guruhiga taqsim etilishi. Buning ilmiy uslubiyot nuqtai nazaridan asoslanish mezonlari va nisbiylik darajasi. Musiqiy folkloristika musiqa fanlari tizimida. o'zgaruvchanlik va an'anaviylik og'zaki musiqa ijodining asosiy omillari haqida. An'anaviy musiqa ijodining ko'pincha sinkretik holatda yuzaga kelishi. Unda shakl va mazmun tomonlari yuqori darajada o'zaro bog'langanligi. Umumilmiy usullar va an'anaviy musiqa ijodini tadqiq etish daraja va pog'onalari xususida. Musiqiy folkloristika fanida nazariy va tarixiy yondoshuvlarning o'zaro aloqadordigi haqida.

An'anaviy musiqa ijodiyotining akustika va lad jihatlari

An'anaviy musiqa tovushlarining sadolanish jihatlari va ko'povozlik musiqa uslublariga nisbatan o'ziga xos tomonlari. An'anaviy musiqa cholg'ularining tembr xususiyatlari, ularning shu jihatidan xilma-xilligi va o'ziga xosligi. An'anaviy ansambllarning tuzilish mezonlari. Og'zaki an'anadagi musiqa uslublarida ovoz akustikasi. Tovushqatorlarning tarixiy rivoji hakida. Kadimgi, tovushqatori shakllanmagan uslublarning akustika jihatlari. An'anaviy musikada diatonika tovushqatorlarining ustunligi. Matematik qoidalar asosida tashkil topgan tovush tuzilmalarining an'anaviy musiqa uchun tarixiy ahamiyati.

“Pardalar tuzilmasi” tushunchasining qisqacha ta’rifi va uning og’zaki an’anadagi musiqa uchun ahamiyati. Pardalar tuzilmalari muayan musiqa uslubiga oid kuy-navolarning umumlashma sifatida namoyon bo’lishi; an’anaviy musiqada parda birikmalarining ohangdorlik mohiyati xususida. Parda tuzilmalarining asosiy funktsional ko’rinishlari. Parda tuzilmalarining tarixiy rivoji, turli funktsional ko’rinishlarning an’anaviy musiqa uslub va turlariga aloqadorligi. Lad tizimidagi parda qo’shilmalariga oid bo’lgan takrorlanish va turlanish (o’zgaruvchanlik) hamda dinamika kabi funktsional omillar haqida.

Og’zaki an’anadagi musiqaning ko’p ovozlilik ko’rinishlari

An’anaviy musiqa ijodida jamoaviy ijro uslublarining keng qo’llanilishi, uning ibtidoiy qatlamlarida ko’povozli yo’llarning birlamchiligi. An’anaviy musiqa madaniyatiga xos bo’lgan jamoaviy ijrochilik yullari: cholg’u dastasi) jo’rligida yakkaxonlik, aytishuv (ikki guruh qo’shiqchi yoki ikkita qo’shiqchi tomonidan navbatma-navbat kuylash), guruhli ijrochilik, hamnafas ashulachiligi, cholg’ular dastasi ijrochiligi, ko’povozli cholg’ular ijrochiligi va boshqalar. Ko’povozli musiqa uslublarining ichki tuzilish ko’rinishlari: ko’ptovushli birovovzlilik ovozlarning yetakchi va jo’rovovz yo’llariga ajralishi, ohanglar ifodaviy tengdoshligi. An’anaviy musiqa ko’povozli uslublarining nisbatlari, muayyan musiqa namunalarida o’zaro yaqinligi.

An’anaviy musiqaning ritmik tizimlari haqida

An’anaviy musiqada, bir tomondan, o’yin-raqs va cholg’u musiqasi, ikkinchi tomondan kuychanlik shakllar va qo’shiqchilik an’analariga xos bo’lgan ritmik tizimlar haqida. Urg’uli ritmning o’ziga xos tomonlari. Markaziy Osiyo xalqlari an’anaviy musiqa ijodida usul va usul turkumlari to’g’risida. Aytim musiqa turlarida she’riy va musiqiy vaznlarining o’zaro aloqadorligi. Vokal janrlardagi “o’lchovli-miqdorli” ritmik yo’nalish to’g’risida. “Ohangdor ritm” tizimi. Uning jihatlari, ritmik davrlarning tuzilishi. Kvantitativ, barmoq ulchamdagi ritm uslubining xususiyatlari. Turoq tushunchasi. Qadimgi ritmik qoliplarning aniqlash usullari. Aruz ruknlariga aloqador bo’lgan musiqa vaznlari. Aruz asillarining ashula kuylarida aks etirilishi.

An’anaviy musiqaning kuy-ohang va shakl jihatlari

Og’zaki an’anadagi musiqada kuychan uslublarning yetakchiligi, bularda kuy tuzilishi va shakl masalalarining bir-biriga yuqori darajada bog’liqligi. An’anaviy musiqa ijodida aynan musiqiy qonunlar bilan birga badiiy bo’lmagan omillar mavjudligi va ularning musiqiy shakl rivojlanishi jarayonida namoyon bulishi. An’anaviy musiqaning kuy turlari. Og’zaki an’anadagi musiqaning shakl bo’laklari

haqida ma'lumot, uzluksiz davom etayotgan shakllar. Kuy bo'laklarining bir-biriga qo'shilish usullari, shakl rivojlanish yo'llari va kompozitsion ko'rinishlar. Aytim shakllari va ularga oid tushunchalar. An'anaviy musiqada band va band-naqarot shakllarining o'rni va xilma-xilligi. An'anaviy aytim musiqaning ba'zi janr va uslublarining shakl jihatlari. Og'zaki an'anadagi musiqa shakllarining tarixiy o'zgarishlar haqida ma'lumotlar. An'anaviy musiqaning turkum shakllari. CHolg'u musiqa shakllarida takroriylik va o'zgaruvchanlik omillari. Davriya shakli va uning rivojlangan turlari. qo'shuv shakllar. Murakkab cholg'u shakllar.

An'anaviy musiqa ijodida janr va uslublar tizimi

An'anaviy musiqa namunalarining mavzuiy, ijroviy, ijtimoiy, tarixiy va boshqa tasniflash mezonlari. Badiiy mazmun jihatidan an'anaviy musiqaning epik, lirik va dramatik turlarga ajralishi. Bularning she'riyat, o'yin-raqs kabi badiiy turlari bilan o'zaro munosabatlari. hikoyaviy musiqa turlari ohang, ritmik, shakl xususiyatlari. Lirik musiqa turiga mansub bo'lgan qo'shiq, raqsbop qo'shiq va kuy turlari. Ularning ohang, ritmik, shakl xususiyatlari. Dramatik musiqa turlarining xususiyatlari hamda asosiy janrlari. Musiqa turlarining aralashuvi haqida: hikoyaviy-lirik, hikoyaviy-tomoshaviy, tomoshaviy-lirik va boshka ko'rinishlar. An'anaviy musiqa namunalarining funktsional vazifalari hamda shakli o'zgaruvchanligi. Bu omilning janr tizimi uchun ahamiyati. Musiqiy sheva va uslub tushunchalari. Mahalliy musiqa shevalarini bir-biridan ajratish mezonlari. Musiqiy dialektlari bilan milliy musiqa an'alarining o'zaro munosabatlari. An'anaviy musiqa uslublar tizimi. Mahalliy, milliy, mintakaviy musiqa uslublari haqida. An'anaviy musiqada tarixiy uslublar. Musiqa uslublarining tasniflash mezonlari, o'rganishdagi ilmiy usullar. Bu mavzuda bajarilgan asosiy tadqiqotlar.

Hozirgi zamon etnomusiqashunoslik fani

Etnomusiqashunoslik fani tarixiy, ijtimoiy va san'atshunoslik fanlari tizimida. Musiqiy folkloristikaning o'ziga xosligi. Etnomusiqashunoslik ilmida mavjud bo'lgan asosiy — umumtasnifiy va tarixiy tadqiqot mezonlari. Umumtasnifiy va tarixiy ilmiy uslublarning bir-biriga aloqadorligi. Bular asosida tashkil topgan tarixiy-tipologik, tarixiy-genetik, tarixiy-qiyosiy, funktsional-sotsiologik, morfologik, strukturalizm kabi ilmiy yo'nalishlar. Bularning mavzulari, asosiy maqsadlari. Ushbu ilmiy usullarda bajarilgan asosiy tadqiqotlar va erishilgan natijalar. Etnomusiqashunoslik fanida qo'llanilayotgan ilmiy usullarning xilma-xilligi va o'ziga xosligi. Markaziy Osiyo xalqlari musiqiy folklorshunosligi ilmiy usul va uslub masalalari kesimida.

Ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha

ko'rsatma va tavsiyalar

Ushbu fan bo'yicha ma'lum bir mavzularni o'tib bo'lingandan so'ng, oliy ta'lim muassasasining xususiyatlaridan kelib chiqib amaliy mashg'ulotlar olib borilishi nazarda tutiladi. Bu – nazariy o'rganilgan bilimlarni, amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlab borishga yordam beradi. Xususan, seminarlarda har bir mavzu yuzasidan xalq va mumtoz o'zbek musiqa merosi namunalarini tinglash, tahlil etish, kuy va ashulalarni notaga bo'yicha ijro etib, ifoda vositalarini ajratish, turlicha ijro talqinlari bilan tanishish, belgilangan misollarni yodlash yaxshi natija beradi.

Maqomot merosiga o'tilgandan so'ng SHashmaqom cholg'u va ashula yo'llari qonuniyatlarini o'rganish, parda, usul, avj, namud, shakl hamda ijro xususiyatlarini kuzatish borish shart. Seminarlar ayrim asarlarning ijro talqinlarini tinglab ko'rish, tahlil etish kabi zarur ko'nikmalarni shakllantirishga qaratiladi. Musiqiy ijro yozuvi namunalarini turli uslublarda yozilganini, ularning farqlarini anglash, sadolanish variantlarini tahlil orqali o'rganish vazifalari ham qo'yiladi.

Nazariy darslarda o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni seminarlarda turli shakllar yordamida sinovdan o'tkaziladi. Seminar mashg'ulotlari fanni kasbiy tayyorgarlik talablari darajasida o'zlashtirishga yo'naltirilgan barcha uslubiy yondoshuvlar, bilim va ko'nikmalarni mantiqan umumlashtirishga xizmat qiladi.

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ta'limni tashkil etishda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- darslik, o'quv qo'llanma, maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- yangi musiqiy texnik vositalar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabning ilmiy tekshirish (ijodiy) ishlarini (TITI) bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularini chuqur o'rganish;
- faol o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari (ishbilar o'yinlar, diskussiyalar, seminarlar, kollokviumlar va b.).

Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni axborot-ta'lim resurslaridan, ta'lim muassasasida mavjud kutubxona, fonoteka va videoteka jamg'armasidan, repetitoriyalardan, o'quv laboratoriyalari, ovoz yozuvi studiyalari, teleradiokompaniya kanallari va kontsert zallaridan unumli foydalanishdan, bajarilgan ishlarning tahlilini bayon etishdan iboratdir. Mazkur fanning xususiyatlaridan kelib chiqib kasbiy mahoratni rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni maqsadli amalga oshirish ham nazarda tutiladi.

Dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti

Mazkur fanni o'zlashtirishda ta'limning zamonaviy metodlari (xususan, interfaol), pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ijodiy o'quv jarayonida unumli qo'llaniladi. Axborot-resurs markazlari kompyuterlari, "Internet", "Ziyonet" kabi axborot resurs tarmoqlari, maxsus Veb-saytlar sahifalaridan unumli foydalanish, maxsus o'quv adabiyotlari – darslik, o'quv qo'llanma, uslubiy qo'llanma, metodik tavsiyalar, nota grafikasi yuzasidan amaliy kompyuter dasturlaridan keng foydalanish nazarda tutiladi.

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar

1. O'zbek musiqasi tarixi. T., 1981.
2. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. T., 1963.

Qo'shimcha adabiyotlar

3. Istoriya muzyki Sredney Azii i Kazaxstana. M., 1995.
4. Matyoqubov O. Og'zaki an'anadagi professional muzika asoslariga kirish. T., 1983.
5. Вызго Т.С. Музыкальные инструменты Sredney Azii. M., 1980.
6. Ibrohimov O. Maqom va makon. T., 1997.
7. Karomatov F.M. Uzbekskaya instrumental'naya muzyka. Nasledie. T., 1972.
8. Rajabov I. Maqom asoslari. T., 1992.
9. Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. T., 1993.
10. Yunusov R. Maqom san'ati ustalari. Faxriddin Sodiqov. T., 2005.
11. SHashmaqom an'analari va zamonaviylik / Tuzuvchi va mas'ul muharrir D.Murodova. T., 2005.
12. Abdullaev R.S., Solomonova T.E. O'zbek musiqasi tarixidan xrestomatiya. T., 1983.
13. O.Ibragimov "O'zbek musiqa ijodi". 1990 y.

Notografiya

1. Karomatov F.M. O'zbek xalqi muzika merosi. XX asr. 1- kitob. T., 1978, 1982.
2. O'zbek xalq qo'shiqlari. Tuzuvchi Ye.Romanovskaya. 1-2 kitob. T., 1939.
3. O'zbek xalq muzikasi. 1-8 jildlar. Yu.Rajabiy, M.Yusupov yozuvlari. T., 1955-1961.
4. Romanovskaya Ye. Xorazm xalq muzikasi. T., 1939.
5. Uspenskiy V. SHest'ь muzykal'nykh poem (S.Hashmakom). Buxara, 1924.
6. SHashmaqom 1-6 j. Yu.Rajabiy yozuvi. T., 1966-1975.
7. SHashmakom v 1-5 tt. Zapisi Fayzullaeva B., Saxibova S.H., S.Haxobova F. M., 1950-1967.
8. Xorazm maqomlari. 5 kitob. M.Yusupov yozuvi. T., 1980-1987.
9. Gulyor-S.Hahnoz. V.Uspenskiy yozuvi. T., 1956.